

SamDChTI Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti ta'lim yo'nalishi:
5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (yapon tili) ta'lim yo'nalishi
bitiruvchisi bakalavr Usmonov Odilbekning “Yapon va o'zbek tillarida fe'l
so'z turkumi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi uchun berilgan.

KIRISH.....	2
I BOB.Fe'l haqida umumiy ma'lumot.....	7
1.1. O'zbek va yapon tilida fe'l tushunchasi	
1.2. Yapon tilida fe'lning o'ziga xos xususiyatlari.....	27
 II BOB.Fe'lning o'ziga xos turlari va shakllari.....	29
2.1. Yapon tilida fe'lning hurmat va oddiy (ますけい, 普通形) shakllari.....	
2.2. Yapon tilida ーて va ーた fe'l shaklining grammatik birliklari.....	41
Xulosa vatakliflar.....	49
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	53

KIRISH

Aqliy zakovat va ruhiy, ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir. Shuning uchun xorijiy tillarning nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxasislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud.

I. Karimov

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi; Hozirgi kunga kelib mamlakatimizning turli hududlarida xorijiy tillarni o'rganish sohasiga katta ahamiyat berilmoqda. Buning natijasi o'laroq talabalarning bilimga, tilga bo'lgan ishonchi, qiziqishi ortib, yetuk, kuchli kadr bo'lib yetishmoqda. Tilni o'rganishning o'zi bo'lmaydi. Hamma tilning ham o'ziga yarasha qiyinchiliklari bo'ladi, shu jumladan yapon tili ham shular qatoridan joy olgan. Yapon tili o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa tillardan ajralib turganligi sababli, dunyo miqqiyosidan joy olib kelmoqda. Bu tilni o'rganib kalayotgan har bir talaba unga boshqa tillardan farq qiluvchi qiyin tomonlari, jim-jimador ierogliflari, bir biriga o'xshash grammatik jihatlarini uchratishimiz mumkin.

Xorijiy tilni o'rganish ham bu yuksak badiiy ijoddir ya'ni mehnat talab qilinadigan ishdir. Ijod yoki ish bo'lganda ham gohida asliyat o'rganayotgandan ko'proq izlanish, mehnat, sabr-toqat talab qiladigan, turli xil materiallar ustida ijod qilishdir. Mana shuning uchun ham tilni o'rganayotgan talabalardan avvalam bor sabr kerak bo'ladi. Hozirgi paytda millatlararo o'zaro aloqa qilishga ehtiyoj kuchaygani sari, xorijiy tilni o'rganishga ham talab kengayib boraveradi. Bizning yurtimiz ko'p millatli xalq hisoblanadi. Ulargafan, madaniyat va texnika sohasidagi mo'jizalar, olamshumul hodisalarni bevosita va bilvosita boshqa tillar orqali, boshqa xalqlarga yetkazishdir.¹

Tilni bir butun murakkab sistema sifatida o'rganish hozirgi zamon fanining barcha talablariga javob bera oladigan yangi ilmiy metodlarning yaratilishini

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. -175 b

taqozo qiladi. Shunday qilib til ijtimoiy xarakterga ega. Chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri, uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda g'plashuvchi jamiyatga bog'liq. Til jamiyat bilan paydo bo'lganidek, jamiyat bilan o'ladi ham. Demak, har bir inson borliqda, har bir narsa tilde o'z aksini topishini tushunishi lozim.

Respublikamiz mustaqillikdan keyin xorijiy tillarni o'rganish ilmiga bo'lgan e'tibor tufayli va zamonamiz taraqqiyoti sabab, ko'plab xabarlar asl o'sha xalq tilidagi axborot vositalardan olinishi talab qilinmoqda. Yuqorida bayon qilingan fikrimizdan ma'lumki, biz bakalavrlik bitiruv malakaviy ishi sifatida tanlangan ish mavzunung dolzarbligidan dalolat beradi va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Ilmiy ish uchun tanlangan mavzuimizning dolzarbligi, mazkur ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Til – faoliyat, nutq – faoliyat mahsuli, tilning voqelanishi, namoyon bo'lishidir. Demak, til faoliyati til va nutqdan tashkil topadi. Til faoliyatida til va nutq ajratiladi, faeqlanadi. V. Gumboldning til va nutqning til va nutq antinomiyasi, ularning farqlanishi, til vanutqning dialektik munosabatda olinishi tilshunoslik taraqqiyotiga qo'shilgan juda katta hisa bo'ldi.

Til o'zining haqiqiy” hayotini” insonlar orasida qo'llanishidagina topsa-da, ammo uning mavjudligi, “hayotiyli” alohida shaxslarga bog'liq emas.

U jamiyatning aloqa quroli sifatida obyektiv mavjud. Til bir vaqtning o'zida insonga ham bog'liq, ham bog'liq emas. Bir tomondan inson tilni an'anaga ko'ra qabul qilsa, ikkinchi tomindan, uning o'zi doimo tilni yaratadi, yangidan “quradi”, barpo qiladi. Har gal inson nutqida til birliklari, vositalri, til “ashyosi” harakatga keladi, jonlanadi.

Til subyektda paydo bo'lgan fikrni obyektivlashtiradi, reallashtiradi, umumga yetkazadi- ta'sir qiluvchi kuchga aylantiradi. Fikrni obyektivlashtirish jarayoni fikrni o'zgalarga yetkazish imkoniyatini beradi, yaratadi. Ammo ayni vaqtda har bir nutq, har bir fikrni ifodalash subyektivdir. Nutqni qabul qiluvchi, idrok qiluvchi shaxs- tinglovchi nutqni go'yoki qaytadan o'zida yaratadi.

Til- faoliyat, harakat, o'zgarish, o'zgaruvchanlik. Ayni vaqtda til faoliyat mahsuli, turg'un, barqaror, bunyod etilgan o'zgarmaslikdir. Demak, til bir vaqtning o'zida ham faoliyat, jarayon, ham faoliyat mahsuli sifatida mavjuddir. Aslida esa deydi V.Gumboldt "til faoliyat mahsuli emas, balki faoliyatdir" demak, til faoliyat mahsuli sifatida sinxron tushunchadir. Anig'i, til faoliyat sifatida nutqdir, nutq faoliyatdir nutq jarayonida voqelanishdir. Til faoliyat mahsuli sifatida asrlardan asrlarga o'tib boruvchi, jamiyat taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlovchi taraqqiyot mezonidir, muayyan tarixiy normadir.

Xullas, ushbu antinomiyasi asosini hozirgi tilshunoslikda talqin etilayotgan lison ya'ni til va nutq dialektikasi tashkil qiladi.

Tilshunoslik tarixida V.Gumboldt, Boduen de Kurtenelar bilan bir qatorda turuvchi ulkan tilshunoslardan yana biri shveytsariyalik fransuz Ferdinand de Sossyurdir. U ham til ta'rifi masalasiga alohida e'tibor bergan: F de Sossyur ta'rificha fanning yagona va haqiqiy predmeti til bo'lib, u aloqa quroli vazifasini bajaradi. Til mohiyat emas, balki shakldir, degan o'ziga xos ta'rifni o'rta tashlaydi. Bu bilan u tilni mazmun mohiyat bilan qorishtirmaslik, undan farqlash lozimligini, til u yoki bu mazmunni ifodalash shakli, vositasi ekanligini nazarda tutadi. F.de Sossyur o'z qarashlarida tilning system xaraktergab ekanligini qayta-aqya ta'kidlaydi. Shunga ko'ra u til belgilar sistemasidir, degan ta'rifni ham berib o'tadi. Til belgilari ning fikricha, shartli, ixtiyoriy, erkin bo'lib, ikki tomonga – ifodalovchiga va ifodalanuvchiga egadir.

Bitiruv malakaviyishimizda yapon tili grammatikasida eng murakkab mavzulardan bo'lganligi bois, bu birikmalar haqidato'liqroq ma'lumotlar berishga qaror qildik.

Tadqiqodning maqsadi va vazifalari. Mavzuning maqsad va vazifalari quyidagilarni qamrab oladi.

1. fe'lshakllari haqida umumiy tavsif;
2. fe'l shakllari gap tahlilida;
3. Mazkur fe'l shakllari o'zbek tilida tarjimasini;
4. Ushbu fe'l shakllarining gapdagi o'rni;

5. Mavzuni aniq dalillarda bayon etish singari jihatlardan iborat;

Mavzuga doir yapon tilidagi gap andozasida fe'l shakllari yoritish va bu orqali aniq tarjima ahamiyatiga erishish, ikkilanish bo'lgan gap tahlilini kengaytirib, o'quv materiallarda joriy etish.

Ma'lumki har qanday sohadagi o'rgatish mavzulardagi aniqliklar kichik asos bo'lmish ishning vazifasida o'z aksini topadi. Shunga ko'ra, o'ylaymizki, agar hozirdan kurs ishining maqsadi va vazifasi aniq belgilanib olinsa, kelgusida bu sohadagi yana ilmiy izlanishlar uchun poydevor vazifasini o'tab, ishning ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari talabalarga qo'l keluvchi sistemali struktura va tahlillar orqali mashqlarda mazkur mavzu kengaytirilsa – o'zlashtirish oson bo'ladi.

Tadqiqodning predmeti va obykti. Ushbu mavzuni o'rganishda qator o'quv predmetlarida foydalanildi. Jumladan o'zimiz o'rganayotgan:

-みんなの日本語 1 va 2 kitoblar;

-ushbu kitobning tarjimasi va grammatik tahlil;

-ニュアプロツキ kabi;

-Sunnat Sherov. Yapon tili grammatikasi.

-Hamroyev M.A va Sh.Rahmatullayev kabi o'zbek tilshunoslarining "O'zbek tili ma'ruzalar matni" kabi kitoblardan foydalanib ishning predmetini belgilab oldik.

Bu kabi kitoblardan foydalanilganda o'zbek tilidagi tarjimalar ham kerak. Chunki bir tilni tarjima asosida o'zlashtiramiz.

Tadqiqot metodlar. Tarjima metod- ushbu metodning nomi odatda tarjimalari atamasi bilan ko'plikda ishlatiladi. Nomidan ko'ra ma'nosini bilib olish qiyin emas. Chet til materialini ona tilidan tarjima qilinadi. Yevropada avvalo yunon tili keyinchalik lotin tili o'rgatilganda tarjima tushunish usuli.

18-asrning 2- yarmi va 19- asrning boshlarida fransuz, 20-asrda esa ingliz va nemis tillari tarjima orqali o'rganib kelindi. Musulmonlar dunyosida esa arab tili, german va fors tili chet tili sifatida o'rganilar edi. Tarjima metodlari orasida eng ko'p tarqalganlari "Grammatika tarjima metod va matn tarjima metod" nomlari

bilan mashhur bo'lgan. Ayrim o'uvchilar hozirgacha tarjima metodlari usullaridan noo'rin foydalanishmoqda. Masalan: matnning og'zaki tarjima qilish g'ayrimetodik usuldir. Matnning ayrim jumalari bir maqsadda tarjima qilish man etilmaydi.

To'g'ri metod- metod nomining kelib chiqish asosiy sabab shundan iboratki to'g'ri metodda o'qitish chog'ida ona tilini chetlab o'tib chet tili so'zi bilan predmet orasida bevosita bog'latish o'rgatishga urinib ko'rilgan.

Qiyosiy metod- uning to'liq nomi "ongli qiyosiy "metod deyiladi. Qiyosiy metodning asoschisi V. Shcheber bo'lib, metodni hozirgi davr chet tili o'qitish jarayoniga moslashtirgan. Shcherba ishining davomchi pedagogika fanlari muxbir a'zosi professor V. Raxmonov bo'ladi.

Ongli-qiyosiy metod bo'yicha chet tili o'rgatilganda didaktik onglilik prinsipi asosida ish ko'ra boshlagan. Ushbu metodning qiyoslash ona tiliga tayanib ish ko'rish nutq faoliyati turlarini bir yo'la o'rgatish singari xususiy prinsipini 40-50-yillarda amaliy qo'llash boshlandi.

Bu o'z ishimizda asosan solishtirma va qiyosiy, kuzatuv metodlaridan foydalandik. Bu metodlar mavzuga aloqador bo'lgan jihatlarida ko'p tavsiflarda qo'l keladi deb aytish mumkin.

Tadqiqotning nazariy ahamiyatimanbalari. Bitiruv malakaviy ishimizda, nazariy va amaliy ahamiyatlari borki, ularni e'tiborga olmasak bo'lmaydi. Demak, tadqiqotimizning nazariy ahamiyati shundaki, endi yapon tilini o'rganuvchi talabalar bu qo'shimcha ma'lumotlardan foydalansa, fe'l shakllari ularning xususiyatlarni ajrata oladi. Zero, nazariy ahamiyatidan xabardor bo'lgan talaba amaliyotda bu kabi gap birikmalaridan samarali, to'g'rifoydalanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishimizda, nazariy ahamiyatidan to'g'rifoydalangan talabalar bu birikmalarni ishlatishda xatoliklarga yo'l qo'ymaydi. Bu esa nafaqat tilni o'zlashtirishda balki uni mustahkam egallash, uchun ham muhim jihatdan kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy tuzulishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishim mundarija, kirish, birinchi bob-fe'l haqida umumiy ma'lumot, hamda ikkinchi

bobda-felning o'ziga xos turlari va shakllari, xulosa va foydalanilgan adabiyotlarro'yxatidan iborat.

I BOB. FE'LSO'Z TURKUMI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1.1 O'zbek vayapon tilidagi fe'l tushunchasi

Grammatika (grek. Grammatike (techke) << Harf o'qish va yozish sana'ti>>, gramma<< harf>>) atamsi tilning morfologik va sintaktik qurulishi va bu qurulishni o'ganadigan tilshunoslik bo'limi ma'nolarida qo'llaniladi. Birinchi ma'nosi obe'ktni, ikkinchi ma'nosi esa tilshunoslik bo'limini bildiradi.

Grammatika tilshunoslik bo'limi sifatida so'z shakllari va kategoriyallari, so'zlar leksik-gammatik guruhlariga (LGG larga) tasniflash tamoyillari, gap va uning kategoriyalari, gapning tuzulish turlari kabi masalalarni o'rganadi.

Ko'rinadiki, grammatika til tuzilishining ikki sathi-morfologik va sintaktik sathini o'rganish bilan shugu'llanadi. Shuning uchun ham u tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Marfalogiya bo'limida so' shakllari va kategoriyalari, so'z shakllarini tasniflash tamoyilari haqida, sintaksisda esa so'z shakllarini gap tarkibida o'zaro birikish yo'llari, gap va uning kategoriyalari, gapning tuzilish tiplari haqida bahs yuritiladi.²

So'z shakllarida morfologik va sintaktik ma'nolarining uyg'unligi ko'rinadi.

Morfologiya grek. Morfos (shakl), logos (ta'limot) so'zlaridan olingan bo'lib, so'z shakllari haqidagi ta'limotdir. Demak, morfologiyada so'z shakli tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi.

So'z atamasi tilning leksik sathiga masub bo'lgan birlik uchun ham, morfologik sath birligi uchun ham qo'llaniladi. Leksik sathi birligiga nisbatan qo'llanilganda leksemaga, morfologik sath birligiga nisbatan qo'llanilganda esa so'z shakliga teng keladi.

So'z grammatik ma'no ifodalovchi vositalarsiz qismi leksema sanaladi.

² Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. - Toshkent.: Fan, 1992. - 196 b.

Boshqacha aytganda, har qanday soʻz oʻzgarish paradigmasida paradigma aʼzolari uchun umumiy boʻlgan qism leksema sanaladi.

Agglyunativ tillarda leksema, asosan soʻzning asos qismiga teng keladi. Masalan, *ishning, ishni, ishga, ishdan, ishda* soʻz shakllari uchun umumiy boʻlgan qism *ish* leksemaga teng keladi

Soʻzning grammatik maʼno ifodalovchi grammatik morfemalar sistemasi grammatikparadigm hisoblanadi. Masalan; *kitabim, kitobing, kitobi* otlarning egalik paradigmasi sanaladi.Paradigmaning muayyan bir aʼzosi soʻz shakli hisoblanadi.Paradigma aʼzolari oʻz ichida oʻzaro zidlik munosibatida boʻladi. Ana shu munosibat u yoki bu paradigma aʼzosi toʻgʻri tavsiflash va uning sistemadagi qiymatini toʻgʻri belgilash imkonini beradi. Masalan; *qalam* soʻzining birlik shaklida ekanligini otlarni son para digmasidagi *Qalamlar* shkliga qarab belgilaymiz. Yoki shu soʻzning bosh kelishikda ekanligini otlarning kelishik paradigmasidagi *qalamning, qalamni* kabi shakilarga qarab anglaymiz. Bundan koʻrinadiki, har bir paradigm asosini oʻzi tashkil etadi. Zidlanishlar paradigm aʼzolarini yashahs va rivojlanish asosidir.

Zidlanish turlari. Har bir morfologoik soʻz muayyan shakillar sistemasini - paradigmani hosil qiladi. Masalan; *kitabni, kitobing , kitobga, kitobda* soʻz shakllari kelishik paradigmasini tashkil etadi. Paradigmani harbir aʼzosi shu oʻzining shakli sanaladi. Demak soʻz shakli (Morfologik soʻz) ikki va undan ortiq morfemaning singtakmatik munosibatida tashkil topgan butunlik [M+M] gapga tayyor holda olib qiriluvchi funksional birlikdir. Htto bir morfemadek tuyulgan *kitab,qalam* kabi soʻzlar ham morfemik jihatdan ikki morfemadan tashkil topgan butunlik sanaladi: [kitab + M] Mqismi bosh kelishik, birlik ifodalovchi nol shakldir.

Morfologik soʻz morfemalarning sintagmantik munosibatidan tashkil topar ekan, demak, soʻzning qurulish birligi morfema variant sanaladi. Shuning uchun morfologiyada morfema va uning variant tushunchasi markaziy oʻrinni egallaydi.

Tilning eng kichik

ma'noli birligi morfemadir. Morfema ijtimoiy-ruhiy mohiyat bo'lib, bevosita kuzatishda nutq jarayonida bir nechta variantlar orqali nomoyon bo'ladi. Morfemaning nutq tarkibida bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'lishi allomorflar yoki morfemani variantlarisanaladi. Masalan, *qishlog'imizga* so'z shakli hozirgi o'zbektili nuqtai nazaridan uch allomorfning (tarixiy jihatdan to'rt allomorph: *qish+log'+imiz+ga*) sintagmatik munosibatdan tashkil topgan butunlikdir:*qishlog'+imiz+ga* Variant nomoyon bo'lishi shart-sharoitlarga ko'ra bir necha turga bo'linadi:

- *kombinator variantlari* ;
- *pozicion variantlari*;
- *fakultativ variantlari*;
- *dialectal variantlari*;

Morfemalar mazmun va vazifasiga ko'ra to'rt turga bo'linadi: 1) leksik morfemalar; 2) So'z yasovchi (derivatsion) morfemalar; 3) Grammatik ma'no ifodalovchi morfemalar (grammemalar). 4) Oraliq morfemalar (undov, mimema, modal morfemalar).

Harakat, holat ma'nosini bildiruvchi, gapda kesim vazifasi uchun xoslangan mustaqil so'z turkumi fe'l deyiladi.

Harakat tushunchasi o'z doirasiga yaratish, buzish, yunalish, sezgi, tafakkur, dinamik ta'sir etish, tabiat hodisalari bilan bog'liq qator turlarni qamrab oladi: qurmok, buzmoq, Bezamoq, yubormoq, ko'rmoq, eshitmoq, o'ylamoq, uyalmoq, yog'moq, chiqmoq, gurkirmoq va boshqalar.

Fe'l morfologik jihatdan o'ziga xos kategoriyaga ega bo'lib, ularni ifoda etuvchi turlicha ko'rsatkichlar mavjud.

Nisbat (daraja) kategoriyasi harakatning subyekt va obyektga bo'lgan munosabatini ifoda etadi. O'zbek tilida ularning besh xil shakli ajratiladi:

-bosh nisbat: ko'rmoq, aytmoq, yo'zmoq, o'ylamoq, bormoq, kelmoq;

-o'zlik nisbat: kiymoq, yuvinmoq, ko'rinmoq, ochilmoq, Kerilmoq, joylashmoq;

-orttirma nisbat: keltirmoq, yozdirmoq, o'tkazmoq, ishlatmoq, tomizmoq, pishirmoq, qaytarmoq, ko'rsatmoq;

-majhul nisbat: olinmoq, aytilmoq, tozalanmoq, bo'shatilmoq, yurilmoq;

-birgalik nisbat: yozishmoq, keltirishmoq, ko'rsatishmoq, arazlashmoq, ketishmoq;

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi harakatning bajarilishi bilan bog'liq tasdiq yoki inkorni anglatadi:

bo'lishli fe'l

tasdiq

keldi

bordi

kuydi

yozdi

kuldi

bo'lishsiz fe'l

inkor

kelmadi

bormadi

kuymadi

yozmadi

kulmadi

Mayl kategoriyasi harakat bilan subyekt orasidagi aloqaning voqyelikka munosabatini ko'rsatadi¹:

-buyruq-istak maylidagi fe'l shaxs-son qo'shimchalari bilan shunday tuslanadi:

birlik

ko'plik

ko'plik

IShaxsboray(in), o'qiyboraylik, o'qiylik

II Shaxsbor(gin), (o'qi(gin)boring(iz), o'qing(iz)

III shaxsborsin, o'qisinborsinlar, ishlasinlar

-shart maylidagi fe'l -sa qo'shimchasi orqali hosil bo'ladi vashart, sabab, maqsad, payt, iltimos, kiyos, zidlik, gumon kabi qator ma'nolarni ifoda etadi;

¹ Ўзбек тилининг грамматикаси, I қисм. Тошкент, Фан, 1975, 463-бет.

-maqsad maylidagi fe'l -moqchi shakli orqali yuzaga chiqadi va maqsad, tilak, mo'ljal ma'nolarini ko'rsatadi.

Zamon kategoriyasi harakat bajarilishiga bog'liq vaqt, paytni aks ettiradi. Ular o'tgan, hozirgi va kelasi zamon shaklida bo'ladi:

-o'tgan zamon fe'llari harakatning nutq momentidan avval bajarilganligini ko'rsatadi: o'qidi, yozgan, boribdi;

-hozirgi zamon fe'llari harakatning nutq momenti bilan bir vaqtda kechayotganligini ifodalaydi: kelyapti, ishlayotir, ketmoqda;

-kelasi zamon fe'llari harakatning nutq momentidan keyin bajarilishini aks ettiradi: tayyorlanmoqchi, gapirar;

shaxs-son kategoriyasi harakatning bajaruvchisini ko'rsatadi. O'zbek tilida uch xil shaxs (I, II, III) va ikki xil son (birlik, ko'plik) ko'rsatkichlari mavjud:

birlik	ko'plik	ko'plik
Ishaxc	aytdim, olyapman	aytdik, olyapmiz
IIshaxs	aytding, olyapsan	aytdingiz, olyapsiz(lar)
III shaxs	aytdi, olyapti	aytdilar, olyaptilar

Shaxs-son bildiruvchi fe'llarda harakat bajaruvchisi bo'lgan birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxslar harakati o'zaro differensial munosabatda bo'lsa, son ko'rsatkichlari birlik vako'plik oppozitsiyasiga kirishadi. Bunda oppozitsiya hosil qiluvchi asos "miqdor" Semasi hisoblanadi.

Fe'l anglatgan ma'nolar qator mazmuniy guruhlariga ajratiladi, bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish so'zlash, sezish, yo'naltirish bilan, holatga xos ruhiy-psixologik, iqtisodiy, tafakkur bilan bog'liq jihatlar e'tiborga olinadi.

Jismoniy harakat fe'llari inson, hayvon, jonsiz, predmetlarga xos dinamikaga taalluqli faoliyatni ifodalaydi:

-yaratish harakati fe'llari: solmoq, ko'rmok, yopmoq, o'rnatmoq, yasamoq, tuzmoq;

-buzish harakati fe'llari: kesmoq, buzmoq, suymoq, yemirmoq, yo'qotmoq;

-o'zgartirish harakati fe'llari: bo'yamoq, bezamoq, kertmoq, yamamoq, buklamoq, gijimlamoq, dazmollamoq, yeymoq;

-ta'sir etishga bog'liq harakat fe'llari: yubormoq, eltmoq, jo'natmoq, tikmoq, ag'darmoq, oqizmoq, tashlamoq, keltirmoq;

-zarb berish bilan bog'liq harakat fe'llari: urmoq, savalamoq, tepmoq, zarb bermoq, tarsakilamoq, bug'moq, do'pposlamoq;

-jamlash harakati bilan bog'liq fe'llar: yig'moq, to'plamoq, jamlamoq, jamg'armoq;

Bular ichida yaratish va buzish harakati fe'llari o'zaro zidlanish munosabatida bo'ladi: ko'rmoq-buzmoq, yasamoq-yemirmoq, tuzmoq-yo'qotmoq. O'zbek tilida yo'nalma harakat fe'llari¹ munosib o'rin tutadi. Bu fe'llarga bormoq, yurmoq, ketmoq, jo'namoq, suzmoq, egilmoq, uchmoq singarilar kiradi. Ular o'rtasidagi qarama-qarshilik vektor antonimlarni ifodalaydi: bormoq-kelmoq, kirmoq-chiqmoq.

Nutq fe'llari¹ nutqiy jarayon bilan bog'liq harakatni o'z ichiga oladi, bunday fe'llar inson faoliyati bilan aloqador bo'ladi:

-so'zlashuv fe'llari umumiy: gapirmoq, so'ylamoq, so'zlamoq;

-axborot anglatish bilan bog'liq fe'llar: bildirmoq, aytmoq, ta'kidlamoq, xabar Bermoq;

-nutqiy aloqa fe'llari: gaplashmoq, suhbatlashmoq, so'ramoq, surishtirmoq, bahslashmoq;

-nutqiy undash fe'llari: targ'ib qilmoq, tashviq qilmoq, iltimos qilmoq, undamoq, buyurmoq, da'vat qilmoq;

¹ *Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва велентлиги, номз. дисс. автореф, Тош., 1999.*

¹ *Кучкартаев И. Семантика глаголов речи в ўзбекском языке. АДД, Тош., 1978.*

-nutqqa xos baholash fe'llari: so'kmoq, urishmoq, Jerkmoq, maqtamoq, yomonlamoq, qarg'amoq;

-talaffuz darajasi bilan bog'lik, fe'llar: baqirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq, dodlamoq, shang'illamoq, ming'illamoq, pichirlamoq;

Nutq fe'llari doirasidagi ayrim so'zlar darajalanish munosabatini hosil qiladi: pichirlamoq shivirlamoq, mingillamoq so'zlamog baqirmoq ,dodlamoq.

Sezgi fe'llari inson yoki hayvonga xos sezish ifodasini namoyon qiladi:

-ko'rish Sezgisi fe'llari: ko'rmoq, qaramoq, boqmoq, tikilmoq, javdiramoq, nazar solmoq, ko'z tashlamoq;

-eshitish sezgisi fe'llari: tinglamoq, eshitmoq, quloq solmoq;

-ta'm-maza Sezgisi bilan bog'liq fe'llar: totmoq, ichmoq, chaynamoq, yutmoq;

-hid bilish bilan bog'liq sezgi fe'llar: hidlamoq, iskamoq.

Tafakkur bilan bog'liq fe'llar inson faoliyati, mushohodasi bilan aloqador tushunchalarni qamraydi:

-fikr yuritish bilan bog'liq fe'llar: o'ylamoq, fikrlamoq mulohaza qilmoq;

-xotirlash bilan bog'liq tafakkur fe'llari: eslamoq, xotirlamoq esga tushirmoq, yodlamoq;

-anglash bilan bog'liq, tafakkur fe'llari: tushunmoq, anglamoq, uqmoq, fahmlamoq.

Hayvonot dunyosi, jonzotlar faoliyati bilan bog'liq fe'llarga xos bo'lgan turlicha xususiyatlarni gavdalantiruvchi harakatlar mansubdir:

-hayvonlar, qushlar ovozi bilan bog'liq faoliyat: kishnamoq, akillamoq, ma'ramoq, miyovlamoq, hangramoq, bo'kirmoq, sayramoq.

O'zbek tilida fe'llar **birlik** va **ko'plik**dabo'ladi. Birlik shakli harakatning bir kishi tomonidan, ko'plik shakli esa birdan ortiq kishi tomonidan bajarilganini bildiradi. Harakat **uch shaxs** tomonidan bajariladi.

1-shaxs harakatning so'zlovchi tomonidan,

2-shaxs harakatning tinglovchi tomonidan,

3-shaxs harakatning o'zga (boshqalar) tomonidan bajarilganini bildiradi.

Demak, fe'l ifodalagan ish-harakatni amalga oshiruvchi shaxsni ko'rsatib, fe'lni kesim ko'rinishida shakllantiruvchi, uni ega bilan bog'laydigan shakllar **shaxs-son shakllari**³deb ataladi:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	bordim, boray, o'qiy	bordik, boraylik, o'qiylik
II	bording, borgan, o'qi	bording(iz), boring(iz), o'qing(iz)
III	bordi, borsin, o'qisin	bordi(lar), borsin(lar), o'qisin(lar)

Fe'llardagibirlikko'pliknivashaxsniko'rsatuvchiqo'shimchalar**shaxs-sonqo'shimchalar**idebataladi. Fe'lning shaxs-son qo'shimchalarini olib o'zgarishi tuslanish deyiladi.Fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari **tuslovchi qo'shimchalar**ham deyiladi. Shaxs-son qo'shimchalari fe'lning qanday shakllariga qo'shilishiga qarab, quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. -di, -sa qo'shimchalaridan keyin qo'shiladi: bordim, borsam, keldik, bordingiz;
2. -gan, -moqchi, -moqda, -yap, -b(-ib), -a(-y), -r(-ar) qo'shimchalaridan keyin qo'shiladi: borganman, kelyapsan, yozmoqchimiz, kelibsiz, ko'rasiz;
3. fe'lning o'zak negiziga to'g'ridan-to'g'ri, bevosita qo'shiladi: boray, yozing, kelsin, topaylik, yozingiz.

Yapon tilida esa fe'lning shaxs-son shakllari mavjud emas.Birlikda ham,ko`plikda ham fe'lning -ます(masu)shakli o'tgan zamonda esa-ました(mashita) shakli ishlatiladi わたしがいきました men bordim,わたしたちがいきました biz bordik,あなたがいました siz bordingiz kabi.

³Abdug'afforov I. F. O'zbek tili grammatikasi. - T.: O'qituvchi, 1999. - B. 124

O'zbek tilida fe'ning shaxs-son shakllari bir-birining o'rnida **almashib**qo'llanishi mumkin: – uka, shunaqa narsa bilan hazil qiladimi!? (3-shaxs, birlik shaklidagi *hazil qiladimi*, 2-shaxs, birlik shakli *hazil qilasanmi*o'rnida qo'llangan).

O'timli va o'timsiz fe'llar

Ish-harakatning bajaruvchisi (subyekt) bilan bajariluvchisi (obyekt) o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Ish-harakatning ob'ektga bo'lgan munosabatiga qarab fe'llar ikki turga bo'linadi. 1. O'timli fe'llar. 2. O'timsiz fe'llar.

O'timli fe'llartushum kelishigidagi so'zlarni boshqarib keladi: *ashula (ni,) aytmoq*, 歌をうたいます、 *xat (ni) yozmoq* 手紙をかきます、 *kitob (ni) o'qimoq*, 本を読みます、 *kino (ni) ko'rmoq* 映画を見ます kabi.

Qolgan fe'llar esa **o'timsiz fe'llar** sanaladi: とびます-*uchmoq*, ねます-*uxlamoq*, なきます- *yig'lamoq*, わらいます- *kulmoq*, はなします-*gapirmoq*, つかれます- *charchamoq*, kabi. O'timsiz fe'llarga ortirma nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalardan mosini qo'shib, ularni o'timli fe'lga aylantirish mumkin: *qushni uchirmoq*, *bolasini uxlatmoq*, *ukasini yig'latmoq*, *tomoshabinlarni kuldirmoq*, *talabani gapirtirmoq*, *o'zini charchatmoq*, *yolg'onchini uyaltirmoq*, *devorni qulatmoq*, *mashinani yurgizmoq* kabi.

Yapon va o'zbek tilida fe'l nisbatlari

Dastlab yapon tilida fe'l nisbatlarini aniqlaymiz.

1. Fe'ning majhul nisbati. 受け身

I va II tuslanish uchun majhul nisbat turlicha hosil qilinadi.

1.negiz + れる I-tuslanish fe'llari uchun

1.negiz + られる II-tuslanish fe'llari uchun

Noto'g'ri fe'llar uchun:

くる + こられる

する + される

Majhul fe`l darajasini hosil qilish

Turlanishi	Fe`lning lug`at shakli	1-negiz	Majhul daraja	Tarjimasi
I tuslanish	かく かむ えらぶ わらう いう	かか かま えらば わらわ いわ	かかれる かまれる えらばれる わらわれる いわれる	yozilmoq tishlanmoq tanlanmoq masxara qilinmoq aytilmoq
II tuslanish	みる たてる あげる	み たて あげ	みられる たてられる あげられる	ko`rilmoq qurilmoq berilmoq
Noto`g`ri fe`llar	くる する	こ さ	こられる される	ziyosat etilmoq qilinmoq

Majhul nisbat darajasida ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmetga ko`pincha に、によって、から、より、で ko`makchilari bilan ifodalanadigon xatti-harakatni bajaruvchi tomonidan ta`sir ko`rsatiladi.

1.犬が私をかみました。 (aniqfe`l) - Meni it tishlab oldi.

2.私は犬にかまりました。 (majhulfe`l) - Men it tomonidan tishlandim.

2.Fe`lning undash darajasi

I va II tuslanishdagi fe`llar uchun fe`lning undash darajasi turlicha hosil qilinadi.

1.negiz+せる

2. negiz+させる

Noto`g`rife`llar uchun

くる+こさせる

する+させる

Fe`llarning undash darajasini hosil qilish

Tuslanish	Fe`ning lug`aviy shakli	1-negiz	Fe`ning undash darajasi	Tarjimasi
I – tuslanish	かく きく よむ かく	かか きか よま かわ	かかせる きかせる よませる かわせる	yozdirmoq, eshittirmoq, o`qittirmoq, yozdirmoq,
II-tuslanish	たべる うける	たべ うけ	たべさせる うけさせる	ovqatlantirmoq, oldirmoq,
Noto`g`ri fe`llar	くる	こ	こさせる	keldirmoq,

3.Felning undash-majhul nisbati

I va II tuslanish fe`llari uchun fe`ning undash-majhul darajasi turlicha hosil qilinadi.

1.negiz+せられる I tuslanish fe`llari uchun

1.negiz+させられる II tuslaninsh fe`llari uchun

Noto`g`rife`llar uchun

くる>こさせる

する>させる

Fe`ning undash-majhul darajasini hosil qilis

Tuslanish	Fe`ning lug`at ko`rinishi	1-negiz	Fe`ning undash-majhul darajasi	Tarjimasi
I tuslanish	かく あらう よむ	かか あらわ よま	かかせられるあ らわせられる よませられる	yozishga majbur bo`lmoq, yuvishga majbur bo`lmoq, o`qishga

				majbur bo`lmoq,
II tuslanish	たべる みる	たべ み	たべさせられる みさせられる	yeyishga majbur bo`lmoq, ko`rishga majbur bo`lmoq,
Noto`g`ri fe`llar	くる する	こ さ	こさせられる させられる	kelishga majbur bo`lmoq, qilishga majbur bo`lmoq,

O`zbek tilida fe`l nisbatlari. O`zbek tilida 4 xil fe`l nisbatlari mavjud.

1.O`zlik nisbat.2.Majhul nisbat3.Birgalik nisbat4.Orttirma nisbat

O`zliknisbatdagife`llarish – harakatningbajaruvchisi (subyeki) ham, bajariluvchisi (obyekti) hambirshaxsyokinarsaningo`ziekanliginianglatadi. Bunisbatfe`lga **-l, -il, -n, -in**qo`shimchalaridanmosiniqo`shishorqalihosil bo`ladi: yuvinmoq, kiyinmoq, bezanmoq, bo`yanmoq, taranmoq, surinmoq, yiqilmoq, qoqilmoq kabi. Masalan: *Gulsanam tongda turib yuvindi, tarandi, kiyindi va ishga jo`nadi. Futbolchining oyog`i qayrilib yiqildi.*

**Majhul nisbatdagife`l** ish-harakatning bajaruvchisini ifodalamaydi. O`zlik nisbatdagi fe`llar kabi **l, -il, -n, -in**qo`shimchalari yordamida hosil bo`ladi: *bug`doy ekildi, sayohatga borildi, xat yozildi, maydon shudgorlandi, ishlar bajarildi, hosil to`plandi, zarar qoqlandi* kabi. Masalan:*Bu yil ob-havo yaxshi kelib, paxta ekilgan barcha yerlar erta shudgorlandi. Bir hafta ichida olmalar terib topshirildi.*Yapon tilida majhul nisbatdagi fe`llar quyidagicha ifodalanadi.この町でたくさんのビルが建てられました。さっき会議が始まりました。¹

Birgalik nisbatdagife'l ish-harakatning ikki va undan ortiq kishi tomonidan amalga oshirilishini anglatadi. Bu nisbat fe'lga **-sh, -ish, -lash** qo'shimchalaridan mosini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *ikkovlashib ishlashdi, o'qituvchidan so'rashdi, ko'rgani kelishdi, ashula aytishdi, opa-uka suhbatlashdi, tabiat haqida so'zlashdi, hovlini supirishdi* kabi. Masalan: *O'qituvchi dars qoldirayotgan talabalar bilan suhbatlashdi. Ular boshqa dars qoldirmaslikka so'z berishdi.*

Yapon tilidagi birgalik nisbatda esa fe'lga hech qanday qo'shimcha qo'shish sodir bo'lmaydi. Faqat gapga 一緒に ravish so'zini qo'shish bilan birgalik nisbatdagi gap hosil qilinadi. masalan: 山田さんと一緒に東京へ行きました。

Orttirma nisbatdagife'llar ish-harakatning amalga oshishida boshqa biror shaxs yoki narsa vosita bo'lishini ifodalaydi. Bu nisbat fe'llarga **-t, -dir, -tir, -ar, -ir, -giz (-kiz, -qiz, -g'iz), -gaz, (-kaz, -qaz)** qo'shimchalaridan mosini qo'shib hosil qilinadi: *she'rni o'qit, bog'da ishlat, bolalarni kuldir, matnni yozdir, kalitni toptir, otni choptir, xonani supirtir, tomga chiqar, qushlarni uchir, ovqatni pishirtir, mashinani yurgiz, dog'ni ketkiz, stulga o'tqiz, uyqudan turg'iz, suhbat o'tkaz, ko'chat o'tqaz* kabi. Masalan: *Gulnora ukasiga ertak o'qityapti. Mushuk daraxtga chiqib, qushlarni uchirdi.*

Fe'lning xoslangan shakllari. Fe'lning uchta xoslangan (funksional) shakli mavjud. 1. Harakat nomi. 2. Sifatdosh. 3. Ravishdosh.

Harakat nomi fe'lning ot va fe'lga xos xususiyatlarga ega shaklidir. Biroq u fe'ldan ko'ra ot so'z turkumiga xos xususiyatlarni o'zida ko'proq namoyon qiladi. Shu sababli, ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini oladi hamda gapda otga xos sintaktik vazifalarni bajarib keladi. Harakat nomi fe'l o'zagi yoki negiziga **-sh, -ish, -v, -uv, -moq** qo'shimchalaridan birini qo'shish orqali hosil qilinadi. Inkor shakli esa **-maslik** qo'shimchasi bilan hosil bo'ladi. Masalan: *ishlash, ishlamaslik, ishlov, ishlamoq, to'qish, to'quv, to'qimoq, to'qimaslik, o'qish – o'qishlar – o'qishim – o'qishimni* kabi.

Sifatdosh o'zida sifat vafe'lga xos xususiyatlarni namoyon qila oladigan fe'l shaklidir. Sifatdosh fe'lga **-gan (-kan, qan), -r, -ar, -vchi, -uvchi** qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali hosil bo'ladi: *o'qigan kitobim, kelgan mehmonlar, ekan*

daraxtingiz, taqqan galstugi, oqar suv, aytar gap, yashar joyini, fikrlovchi kishiga, bog'chada ishlovchi ayollar kabi. Masalan: Men o'qigan kitoblarimining ro'yxatini yozib boraman. Bultur ekan daraxtlarimizning barchasi gulladi.

Sifatdosh gapda, asosan, aniqllovchi, kesim, otlashganda esa boshqa bo'laklar vazifasida ham kela oladi.

Ravishdosh fe'lga **-b, -ib, -a, -y, -gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, quncha), -gani (-kani, -qani)** qo'shimchalaridan mosini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Uning inkor shakli **-ma, -may, -masdan** qo'shimchalari yordamida hosil bo'ladi. Ravishdosh fe'lning ravish vafe'lga xos belgilarga ega shakli hisoblanadi: *turib gapirdi, o'ylab ayting, yura-yura charchadi, o'qiy-o'qiy o'rgandi, kelgach, ekkach, chiqqach, uyga borguncha, ko'ylagini tikkuncha, qo'ylarni boqquncha, to'yga aytgani, chiqindilarni to'kkani, nishonlarini taqqani* kabi. Masalan: *O'ynab aytsang ham, o'ylab ayt. Men yangi va qiyin so'zlarni takrorlay-takrorlay yodlab olar edim.*

Fe'llarning yasalishi. O'zbek tilida fe'llar ikki usul bilan yasaladi. 1. Morfologik usul. 2 Sintaktik usul.

Morfologik usul bilan sodda yasama fe'llar hosil bo'ladi. Quyidagi qo'shimchalar sodda fe'llar yasaydi: **-la, -lan, -lantir, -lashtir, -y, -a, -r, -ar, -i, -sira, -illa**. Masalan: *so'zla, ishla, kuyla, rohatlan, shubhalan, hayajonlan, suhbatlash, harbiylash, keskinlash, chetlat, tomchilat, qoyillat, kuchsizlantir, sho'rsizlantir, yuqumsizlantir, elektrlashtir, ixtisoslashtir, rasmiylashtir, qoray, zo'ray, ozay, keksay, ko'kar, qisqar, eskir, boyi, tinchi, yangila, suvsira, xavfsira, begonasira, qarsilla, yaltilla, chiyilla* kabi.

Sintaktik usul bilan qo'shma va juft fe'llar yasaldi. Qo'shma fe'llar: *ishlab chiqarmoq, sotib olmoq, olib chiqmoq, olib ketmoq, bayon etmoq, qarshi olmoq, qo'l qo'ymoq, kasal bo'lmoq* kabilar. Qo'shma fe'llarni ko'makchi fe'lli so'z qo'shimchalaridan farqlash lozim. O'zbek tilida faqat ko'makchi fe'l bo'ladigan so'zlar yo'q. *Ol, tur, yur, o'tir, bo'l, bitir, yot, boshla, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o't, ko'r, qarakabi* mustaqil ma'noli fe'llar ko'makchi fe'l vazifasini bajarib kelishi mumkin. Ko'makchife'lli so'z qo'shilmalarida oldin

kelgan soʻz yetakchi, keyin kelgan soʻz koʻmakchi feʼl sanaladi. Mazmun yetakchi feʼl orqali yetkazilib, koʻmakchifeʼl, nomi aytib turganidek, unga yordam beradi. Baʼzan yetakchi feʼl bitta boʻlgani holda, koʻmakchi feʼl bir necha boʻlishi ham mumkin. Koʻmakchifeʼlsiz ham yetakchi feʼlning oʻzi fikrni ifodalashi mumkin boʻladi. Qoʻshma feʼllarning tarkibini esa ajratish mumkin emas. Ular birgalikda yangi maʼno ifodalash uchun xizmat qiladi. Koʻmakchifeʼlli soʻz qoʻshilmalari: *oʻqib tur, oʻqib ol, oʻqib boʻl, oʻqib yur, oʻqib oʻtir, oʻqiy boshla, oʻqib qoʻy, oʻqib chiq, oʻqib kel, oʻqib yubor, oʻqib tashla, oʻqib koʻrkabi.*

Juft feʼllarikki har xil feʼlning oʻzaro teng aloqaga kirishuvidan hosil boʻladi: *oldi-qoʻydi, bordi-keldi, yozdi-oldi, aytdi-qoʻydi, oldi-qoldi, keldi-ketdikabi.* Ular har doim chiziqli bilan yoziladi.

Oʻzbek tilida oʻz lugʻaviy maʼnosini yoʻqotgan *edi, ekan, emish, emas* toʻliqsiz feʼllari mavjud boʻlib, ular gap tarkibida feʼllar va feʼl boʻlmagan soʻzlar bilan birga qoʻllanadi: *kelgan – kelgan edi, oʻqigan – oʻqigan ekan, yozgan – yozgan emish, oʻqituvchi – oʻqituvchi edi, haydovchi – haydovchi ekan, yolgʻonchi – yolgʻonchi emish, yozgan – yozgan emas, chiroyli – chiroyli emas.* Toʻliqsiz feʼllar oʻzi ergashib kelgan soʻzga turli qoʻshimcha maʼnolar berish uchun xizmat qiladi.

Feʼllarning sintaktik vazifasi. Feʼllar gapda, asosan, kesim vazifasini bajaradi: 私は外国語大学を卒業しました。

Feʼlning xoslangan shakllari gapda boshqa sintaktik vazifalarni ham bajarib kela oladi. Harakat nomi ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarini bajaradi.

Ega: Yolgʻon gapirish– insonning obroʻyini toʻkadi. うそをつくのはわるいことだ。

Kesim: Maqsadimiz – farovon yashash. もくてきはいいいせいかつをすることだ。

Toʻldiruvchi: Jazirama yozda daryoda maza qilib suzishnikim yoqtirmaydi!? およぐことをわすれました。

Aniqlovchi: Oftobda **toblanishning** kishi sogʻligʻiga foydasi katta. りょこうへいくことのじゅんびをしています。

Hol: *Biz bu yerga ilm o‘rganish uchunkelganmiz.* にほんへべんきょうするためにきました。

Sifatdosh, asosan, aniqlovchi, kesim, otlashganda esa ega, to‘ldiruvchi, undalma, qaratqichli aniqlovchi vazifalarida keladi.

Aniqlovchi: *Aytilgan gap – otilgan o‘q.* いわれたことをしてください！

Kesim: *Bu gap ming marta aytilgan.* これはなんかいもいわれた。

Ega: *Mehnat qilgan - rohat ko‘radi.* ベんきょうしたひとはせいちょうします。

To‘ldiruvchi: *Yolg‘on gapiradiganlarnikim ham yoqtiradi.* うそをするひとをなんかいもみたことがある。

Undalma: *Kech qolganlar, dekaning nomiga tushuntirish xati yozasizlar.* ちこくしたがあくせいたちはきょうしつにでてください。

Qaratqichli aniqlovchi: *Betga aytganningzahri yo‘q.*

Ravishdosh gapda asosan hol, ba‘zan kesim vazifalarida keladi.

Hol: *Biz bugun futbol tomosha qilganistadionga bormoqchimiz.* さっかをみにいきます。

Kesim: *Qo‘ng‘iroq chalingach, hamma o‘quvxonolari tomon shoshildi. To‘yning vahimasiboshlanguncha.* じゅぎょうがおわったあとといえにかえります。

Yapon tilida fe‘lning mayl shakllari

Fe‘l mayllari. Ish-harakatning voqelikka munosabati **mayl** deyiladi. Voqelik – muayyan ish-harakatning ma‘lum zamon va makonda shaxs tomonidan amalga oshirilishidir. Yapon tilida fe‘lning quyidagi mayllari farqlanadi.

Istak mayli. (たい、たがる、ほしい) Fe‘lning ikkinchi negiziga たい、yoki たがる suffiksini qo‘shib istak mayli hosil qilinadi.

Masalan:

のむ>のみたい、のみたがる - ichishni xoxlayman

あう>あいたい、あいたがる - uchrashni xoxlamoq

しんじる>しんじたい、しんじたがる - ishonishni xoxlamoq

みる>みたい、みたがる - ko‘rishni xoxlamoq

する>したい、したがる - qilishni xoxlamoq

できる>できたい、できたがる- bajarishni xoxlamoq

ねる>ねたい、ねたがる - uxlashni xoxlamoq

たい suffiksi qo`shilgan istak maylidagi fe`l shakllarini hosil qilish bo`yicha predikativ sifatga o`xshaydi va neytral-xushmuomila nutqda oxirgi kesim o`rnida bog`lovchisini qo`shgan holda qollanadi.

Sifat va istak maylidagi fe`llarni qiyoslash.⁴

	Hozirgi zamon	Bo`lishsizlik shakli	O`tgan zamon	Shartli shakli	Oradagi shakl
Sifat	くろい qora	くろくない qora emas	くろかった qora edi	くろければ agar qora bo`lsa	くろくて qora va
Istak maylidagi fe`l	のみたい Ichmoqchim an	のみたくない Ichmoqchimasman	のみたかった ichmoqchi edim	のみたければ agar ichilsa	のみたくて ichmoqchim an va

たがる suffiksi istak maylidagi fe`llar tuslanishi va qo`llanishi jihatdan I tuslanish fe`llardan farq qilmaydi. Agar たい li shakllar asosan I shaxsning so`roq gaplarda esa II shaxsning xoxish istagini ifodalash uchun ishlatilsa, たがる li shakl esa III shaxsning xoxish-istagini ifodalash uchun ishlatiladi.

Masalan:

彼ものみたがっています。 U ham ichmoqchi.

彼も弁音大会をききたがっています U ham notiqlik san`atini eshitmoqchi.

ほしい “xoxlayman” sifati yordamida istak shaklini hosil qilish mumkin.

⁴みんなの日本語 I. -Tokyo.: Toshiba International Foundation. 1998. -B. 106

1. I shaxsning tilaklarini ifodalash uchun ishlatiladi.

わたしは新しい家がほしい。Men yangi uyim bo`lishini xoxlayman.

2. So`roq gaplarda II shaxsning tilaklarini ifodalash uchun qo`llaniladi.

あなたは何がほしいですか。Nimani xoxlaysan?

3. III shaxsning tilaklarini ifodalaydi.

彼は新しい家がほしいです。Uyangimashina xoxlaydi.

IIIshaxsnomidanistakma`nosida てほしい qo`llaniladi.

岩崎先生がこの料理を食べてほしい。Iwasakidomlomanabutaomniyeyishnixoxlaydi.

Buyruq mayli.

(てください、ないでください、よ、ろ、な、ませ、ましょう、なさい、てちょうだい)

てください Oddiy buyruqni ifodalaydi.

座ってください。O`tiring!

書いてください。Yozing!

ないでください Bo`lishsizlik buyrug`ini ifodalaydi.

心配しないでください。Havotirlanmang!

ドアに触らないでください。Eshikka teginmang!

よ、ろ、な Qo`polroq buyruq buyurish.

みる>みろ、みよ Qara!

する>せよ、しろ Qil!

よむ>よむな O`qi!

くる>くるな Buyoqqa kel!

ませ O`ta xushmuomila shakl

いらっしやいませ - Xush kelibsiz!

ましょう Hatti-harakatni birgalikda bajarishga undash.

お酒をのみましょう Aroq ichmaymizmi?

一生に行きましょう Birga bormaymizmi?

なさい Yanada xushmuomilalikni ifodalaydi.

お座りなさい marhamat o`ting!

お休みなさい Xayrli tun!

てちょうだい Buyruqning betakallufshakli.(o`zidan kichiklarga,qo`pol emas)

これを片付けてちょうだい- Bu yerni yig`ishtirib qo`y!

Shart mayli. (ば、たら、だら、と、なら、ならば)

ば suffiksi barcha fe`llar va sifatlarning 4 negiziga qo`shiladi.

よむ>よめば

くる>くれば

する>すれば

Masalan:

雨が降れば傘をさします。 Yomg`ir yog`sa soyabon ishlataman.

たら、だら Shartlilik shaklini hosil qiladi.

彼に会ったらよろしくお伝えてください。 U bilan uchrashsang minnaddorchilik bildir!

この本を読んだらいいです。 Bu kitobni o`qisang yaxshi.

と bog`lovchisi shart-vaqt bog`lovchisi 3-negizdan keyin payt-ergash,shart-ergash gaplarni hosil qiladi.

ご飯を食べないとおなかがすきます。 Ovqatyemasangochoqolasan.

なら、ならば shartbog`lovchilari,fe`llar,sifatlarshuningdekotlarninghozirgi-kelasizamonvao`tganzamondagishakllardankeyinkelib,gapgamavzugaooidshartnikiritadi.

電車なら1時間かかります。 Poyezd bo`lsa 1 soat vaqt ketadi.

O`zbek tilida ham fe`l mayllarining quyidagi shakllari mavjud.

1. Aniqlik yoki ijro mayli.

2. Buyruq-istak mayli.

3. Shart mayli.

Aniqlik mayliningmaxsus morfologik ko`rsatkichi yo`q. Aniqlik maylidagi fe`l ish-harakatning uchala zamondan birida yuz berayotganligi yoki bajarilayotganligidan xabar beradi. Masalan: *Bugun ertalab kuchli yomg`ir yog`di.*

Javohir o'rtoqlari bilan kutubxonada dars tayyorlayapti. Shahzod zamonaviy fotoapparat sotib olmoqchi. Sardor bu musobaqada ishtirok etmoqchi emas.

Buyruq-istak maylidagife'llar buyruq, istak, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni anglatadi. Bu mayldagi fe'lning I shaxsi istak, iltimos ma'nolarini, II shaxsi sof buyruq, iltimos ma'nolarini, III shaxsi esa maslahat, iltimos ma'nolarini bildiradi.¹

Birlik sonda

I sh. *men yoz-ay (in), o'qi-y (in)* – 私が書いてもいい？

